ANDIJON VILOYATI BULOQBOSHI TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 31-oktabr | 155-1-20-Q/25 | Buloqboshi tumani hokimligi

Buloqboshi tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 24-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

- byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Buloqboshi tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Buoqboshi tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Buoqboshi tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

- xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 311 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

- nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 13.1 foiz (41 kishi);

- oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 21.2 foiz (66 kishi);

- kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 52.7 foiz (164 kishi);

- muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 11.2 foiz (35kishi);

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 1.2 foiz (4 kishi);

- odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0.3 foiz (1 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

- davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

- xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

- zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Buloqboshi tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

- ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Buloqboshi tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

- ishga joylashtirish to‘g‘risida Buloqboshi tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

- zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

- korxonaga Kengash qarori ijrosini ta’minlash, zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlarini butlash maqsadida, mahalliy kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan kelishgan holda talabga asosan, ijtimoiy ehtiyojmandlar soni o‘zgarishiga qarab boshka toifalarni ishga qabul qilinishiga ruxsat berilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil

14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Buloqboshi tumani Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Buloqboshi tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Ergashev Ilxom Malikovich):

- besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

- aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Buloqboshi tumani Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Jalilov) zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Tuman hokimi **F.Bo‘taxonov**

Buloqboshi tumani hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
155-1-20-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Buloqboshi tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasa-laridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
ЖАМИ:			**6308**	**153**	**284**	**41**	**66**	**137**	**35**	**4**	**1**
1	46-sonli Informatika va axborot texnalogiyalarini chuqurlashtirilib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab	203135662	103	1	6	2		4			
2	2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203135679	115		8	3	1	4			
3	3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203135686	109	5	3		1	1	1		
4	4-umumiy o‘rta	206895301	119	3	5		1	4			

	ta’lim maktabi										
5	5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206889664	116		8	3	1	4			
6	6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203135694	108	1	7	2	1	4			
7	7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895318	56	3	1			1			
8	8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206889695	68	3	2			1	1		
9	9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895325	57	1	3		1	2			
10	10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203915965	69	1	4	1	1	2			
11	11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895333	61		4	1	1	2			
12	12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203194764	74		5	2	1	2			
13	13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203135702	80	2	4		1	2	1		
14	14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895340	42	1	2		1	1			
15	15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203489333	67	2	3		1	1	1		
16	16-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895357	68	2	3		1	1	1		
17	17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203135719	74	1	4	1	1	1	1		
18	18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206889671	61	4	1			1			
19	19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895364	65	1	4		1	2	1		
20	20-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203489340	86	1	5	1	1	2	1		
21	68-Ixtisislashtirilgan davlat umumta’lim maktabi	203135726	66	1	4	1	1	2			
22	22-umumiy o‘rta	206884544	74	1	4	1	1	2			

	ta’lim maktabi										
23	23-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203135734	87	4	2		1	1			
24	24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895372	73	4	1			1			
25	25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203135741	52		3	1		2			
26	26-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203135758	79		5	2	1	2			
27	27-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206889688	102		7	2	1	4			
28	28-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895389	56	1	3		1	2			
29	29-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206895396	59	1	3	1	1	1			
30	55-Ixtisislashtirilgan davlat umumta’lim maktabi	206895404	82	1	5	1	2	2			
31	31-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206889656	59	1	3		1	2			
32	32-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	207302475	82	3	7		1	2			
33	Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigon 14-son davlat ixtisoslashtirilgan maktab internati	201778434	51	2	2		1	1			
34	43-son matematika faniga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi	203486400	52	1	3		1	2			
35	14-son Bolalar musiqa va san’at maktabi	203163272	42	1	2		1	1			
36	1-son Politexnikumi	206974069	81	3	7		1	2			

	davlat muassasasi										
37	2-son Politexnikumi davlat muassasasi	207015491	63	1	3		1	2			
38	1-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207042389	47	2	**5**			1			
39	2-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207012204	51	1	**7**	1	1	1			
40	3-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207048886	49	1	**6**		1	1			
41	4-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207012195	41	3	**5**			1			
42	5-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207012228	54	1	**7**	1		2			
43	6-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207059699	30	2	**5**		1				
44	7-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207042340	36		**6**	1		1			
45	8-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207042357	30	1	**5**			1			
46	9-sonli Umumiy turdagi maktabgacha	207047904	48		**7**	1	1	1			

	ta’lim tashkiloti										
47	10-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207048103	48	1	**6**		1	1			
48	11-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207043316	35	2	**5**			1			
49	12-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207042364	40	1	**6**		1	1			
50	13-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207042372	38	2	**5**			1			
51	14-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207012211	39		**6**	1		1			
52	15-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207048094	47	1	**6**		1	1			
53	16-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207042396	49	2	**5**			1			
54	17-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207042404	51		**7**	1		2			
55	18-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207012188	59		**8**	1	1	2			
56	19-sonli Umumiy turdagi	207046557	51	3	**5**			1			

	maktabgacha ta’lim tashkiloti										
57	21-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207048808	50		**7**	1	1	1			
58	23-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207012171	51	2	**6**		1	1			
59	24-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207042412	49		**7**	1	1	1			
60	25-sonli Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	207048110	35		**6**	1		1			
61	O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligi Buloqboshi tumani Sport maktabi	303876774	77	1	**8**	1	1	2			
62	Yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi	200265725	45		**7**	1		2			
63	Madaniyat bo‘limi	200266526	45	2	**5**			1			
64	Sanitariya Epidemiologik osoyishtaik va jamoat sallomatligi qo‘mitasi Buloqboshi tumani	200266709	85	1	**9**	1	1	3			
65	Buloqboshi tuman Suv yetkazib berish xizmati	207264982	34	2	**5**			1			
66	Buloqboshi tuman Tibbiyot birlashmasi	200266763	2098	65	**11**		21	30	26		

67	Obodonlshtirish boshqarmasi	204484309	138		3	3			1	4	1

Buloqboshi tumani hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
155-1-20-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Buloqboshi tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**

RO‘YXATI

100-нафардан ортик бўлган ташкилотлардан 3 %

Т/р	Топшириқ белгиланган корхона номи	Корхонани ИНН рақами	иноз фелиъялиш сони	шундан	Жами банд қилинган иш ўринлари сони	жумладан															
						ногиронлиги бўлган шахслар	захираланган иш ўрни маълумоти			оилавий (маиший) зўравонликдан жабрланган шахслар	захираланган иш ўрни маълумоти			Камбағал оилалар реестридаги оилаларнинг аъзолари	захираланган иш ўрни маълумоти			мукобил жойлаштириш шаклларида тарбияланган етим шахслар, ота-она қарамоғидан махрум бўлган шахслар	захираланган иш ўрни маълумоти		
				Ногиронлиги бўлган шахслар сони			иш ўрни номи	малака талаби	ойлик маоши миқдори		иш ўрни номи	малака талаби	ойлик маоши миқдори		иш ўрни номи	малака талаби	ойлик маоши миқдори		иш ўрни номи	малака талаби	ойлик маоши миқдори
1	Кўхна-Булоқ Масъуляти чекланган жамият	304279449	209	8	**6**									6	Тикувчи	ўрта ва ўрта махсус	2 800				
2	Мудалин Тех Масъуляти чекланган жамияти	307590623	142	2	4									4	Тикувчи	ўрта ва ўрта махсус	2 800				
3	Найман Файз-М Масъуляти чекланган жамияти	308835323	397	7	12									12	Тикувчи	ўрта ва ўрта махсус	2 800				
4	Сворк Тимур Тех Масъуляти чекланган жамияти	309458751	193	4	5									5	Тикувчи	ўрта ва ўрта махсус	2 800				
	Жами		**941**	**21**	**27**									**27**							